

## **PSIXIK RIVOJLANISH VA UNDA BOLALIK DAVRINING AHAMIYATI**

**ADPI 1-kurs talabasi  
Komiljonova Qamarniso**

**Annotatsiya:** Maqolada psixologiyada bilish jarayonlarining tasnifi va ularning maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarda namoyon bo’lish shart-sharoitlari nazariy tahlillar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** bilish, sezgi, idrok, bola, o’yin, faoliyat, akseleratsiya, psixika.

Psixologiya fanining bugungi kundagi vazifalari, tabiiy, uning predmetiga biroz o’zgarishlar kiritadi. Zero, inson ongi va qalbi uchun kurash muammosi butun dunyo miqyosida dolzarb turgan masala sifatida qaralishini inobatga olsak, jamiyatimizning har bir a’zosi, mustaqil yurt fuqarolari ongining milliy-madaniy muhit ta’sirida, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanishi, ular qalbida sof imon va sog’lom dunyoqarashlar, mustaqil fikrlashning shakllanishi mexanizmlarini o’rganish ham fanning muhim predmeti hisoblanadi. Ayniqsa, buguni yoshlarda aniq maqsad va maslakning bo’lishi, milliy iftixor va g’urur tuyg’ularining to’g’ri tarbiyalanganligi yaxlit xalq va millat manfaatlari bilan uyg’undir. Psixologiya fan sifatida aynan har bir shaxsda o’ziga, yurtdoshlariga, turli faoliyat turlari hamda dunyoga nisbatan to’g’ri munosabatlarni shakllanishi yo’llariniham o’rganishi kerak. Aks holda yoshlar ongidagi o’zgarishlarni aniq bashorat qilolmaslik, ularni to’g’ri tarbiyalash vositalarini tanlashda xatoliklarni keltirib chiqaradi. Inson psixikasi – psixika taraqqiyotning eng oliy bosqichidir.

Har bir yosh davri psixik taraqqiyotning maxsus bosqichidir va bolataraqqiyotining ma’lum bosqichida shaxs strukturasiidagi o’ziga xosliklar majmuini tashkil etadigan o’zgarishlar to’plami bilan xarakterlanadi. L.S.Vigotskiy yoshni taraqqiyotning ma’lum davri deb qaragan. Uning fikricha 1 yosh davrdan boshqasiga o’tganda ilgari yosh davrida mavjud bo’lmagan yangi narsa paydo bo’ladi, taraqqiyotning borishi o’zgaradi va qayta quriladi. Yosh xususiyatlari ko’p sharoitlar majmui bilan belgilanadi. Ularga xayotning ma’lum bosqichida bolaga quyiladigan talablar sistemasi ham, munosabatlar ham, u egallaydigan faoliyat va bilimlar tipi ham bu bilimlarni o’zlashtirish usullari ham kiradi. Yoshning xususiyatini belgilaydigan sharoitlar mazmuniga bola jismoniy taraqqiyotining xar xil tomonlari xususiyatlari ham kiradi. Shunday qilib, yosh davri xayot sharoitlari va taraqqiyotning ma’lum davrida bolaga quyiladigan talablar xususiyatlari va uning atrofdegilar bilan munosabatlari, bola shaxsi psixologik tuzilishidagi taraqqiyot darajasi bilan uning tafakkuri va bilimlari taraqqiyoti darajasi hamda ma’lum fiziologik xususiyatlar majmui bilan xarakterlanadi.

Yosh davrini atrofdegilarga munosabat taraqqiyot darajasi bilan bilimlar, usullar, qobiliyat taraqqiyoti darajasi o’rtasidagi aloqa belgilaydi. D.B.Elkoninning ta’kidlashicha, taraqqiyot jarayonining bu 2 turli tomonlar o’rtasidagi munosabatningo’zgarishi keyingi yosh davrlarda muxim ichki asosni tashkil etadi. Masalan, go’daklik davrida bolaning tashqi muxit bilan aloqasi uning kattalar bilan munosabatorqali amalga oshiriladi. Bola xuddi shunday munosabatlar sistemasi sifatida ma’lummalakalarni egallaydi. Unda tasavvurlarning sodda bosqichlari shakllanadi. Kattalar bilan muloqat usullari kengayadi, nutqi rivojlanadi va boshqalar. Bularning bari bolaning mustaqil xarakter qilish imkoniyatlarining kengayishi uchun asos yaratadi. So’ngra atrofdegilar bilan munosabat usullari ham o’zgaradi. Bu esa psixik taraqqiyotning keyingi borishi sharoitini o’zgartiradi. Bunday vaziyat o’smirlik davrida ham vujudga keladi. Bunda oldingi taraqqiyot yutuqlari majmui bola xayot sharoitlari o’zgarishi bolaning atrofdegilar bilan munosabat usullarining o’zgarishigaolib keladi.

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

Psixologlar tomonidan yosh davrlarning tabaqalashlarning nazariy masalalari ishlab chiqilgan. Ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta xissa bo‘lib qo‘shiladi, amaliy va nazariy muammolarning xal qilishda keng qo‘llanilmoqda.

Keyingi yillarda bolalar va maktab o‘quvchilarining jismoniy va psixik rivojlanishida akseleratsiya (lotincha - ‘tezlanish’) xodisasi ro‘y bermoqda.

Olimlar akseleratsiya xodisasining ham biologik ham ijtimoiy sabablarini ko‘rsatmoqda.

1. Biologik sabablari oz miqdordagi ionlashgan nurlarning va radio to‘lqinlarining ta‘siri qishloq xo‘jaligi va meditsinada o‘shish va rivojlanishni, stimullashtiruvchi biologik faol moddalarning qo‘llanilishi, inson ozuqasida hayvon oqsil moddalari miqdorining oshishi.

2. Ijtimoiy sabablari-hayot tipining kuchayishi, hayot tonusining ortishi, televideniya, radio, kino orqali bolaning o‘smirlik chog‘idan boshlab miyasiga yig‘iladigan g‘oya ko‘p miqdordagi informatsiyalar, ma‘lumot oqimining ta‘siridan iboratdir.

Faoliyati davomida shaxsdan juda ko‘p bilimlarni hamda malakalarni talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab yetgan shaxs (motivlarmuammosi), endi o‘z faoliyati va qobiliyatlarini boshqara bilishi va o‘z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart. Professional bilimdonlik shu nuqtainazardan shaxs umumiy madaniyatining shunday yo‘nalishiki, unga faqat kasbiga taalluqli bo‘lgan bilimlardan tashqari, shu bilimlarning hosil bo‘lish yo‘llari va malakalarning takomillashuvini ta‘minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo yetadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari va ularning mohiyatini va kechishini bilish demakdir.

V.M.Karimova (2010)ning yozishicha, ongning muhim aks yettirish shakllari bo‘lmish bilish jarayonlariga: idrok, sezgi, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlar kiradi.

Bilish jarayonlari – bu shunday psixik jarayonlarki, ular shaxsga o‘zini o‘rab turgan atrof-muhitning ma‘lum va muhim xususiyatlarini anglashga, tushunishga va

ular o‘stida o‘ziga zarur xulosalar chiqarib, o‘z xulq-atvorini rejalashtirishga imkon beradi. Bu jarayonlar insonga juda yaqin va tanish.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bilish jarayonlari ham ma‘lum ma‘noda boshqariladigan jarayonlar bo‘lib, agar siz o‘z imkoniyatlaringizni kengaytirish yoki iqtidor darajangizni orttirmoqchi bo‘lsangiz, bu jarayonlarga oid ma‘lum qoidalar va xususiyatlarni bilib olishingiz kerak.

Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof-muhitni, o‘zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o‘rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo‘lib o‘rgana boshlaganlar. Bu jarayonlar – sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog‘liqlik, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o‘zi qiyin. Masalan, ko‘rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko‘ringchi, uningmohiyatini bilasizmi?

3-7 yoshgacha bo‘lgan davr bog‘cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olganxolda 3 davrga (3-4yosh) kichik maktabgacha davri, (4-5yosh)kichik bog‘cha yoshi, o‘rta maktabgacha davr ( o‘rta bog‘cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog‘cha yoshlilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o‘tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va xodisalar olami bilan alohidamaxsus munosabatga kirishadi. B ola insoniyat ko‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti–harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarningo‘shib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatikuchaya boshlaydi.

Bog‘cha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Mana shu so‘zlardan bog‘cha yoshidagi bola tabiatining asosiy qonuni bo‘lmish serharakatligini ortiqcha cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerakligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola ahloq normalari, kishilarni anglash, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bola endi o‘z gavdasini juda yaxshi boshqara boshlaydi. Uning harakati muvofiklashtirilgan xolda bo‘ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o‘zi bilganlarini mustaxkamlashga ehtiyoj sezadi. O‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog‘cha yoshidagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo‘lish, uynash ehtiyojlarinig mavjudligidir. Bu davrda bolalarda hamma narsani bilib olishga bo‘lgan ehtiyojkuchayadi. Bog‘cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo‘lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri uning har narsani yangilik sifatida ko‘rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog‘cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o‘shida qiziqishning roli ham kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog‘lik bo‘lgan murakkab psixik xodisa desa bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o‘yindir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmokda. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bog‘cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa harakterliki bola bilishga tashnaligidan atrofidagi o‘zining haddi sig‘adigan narsalari bilangina emas, balki kattalarga mansub bo‘lgan o‘zining kuchi ham yetmaydigan, xaddi sig‘maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi.

XULOSA Bola insoniyat ko‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti–harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘shib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 6(766)-son. – 70-modda
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасида мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш бўйича” ПҚ-3261-сон қарори
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. – T., 2012. – 196 b.
4. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik / E.G‘oziyev; O‘zR OO‘MTV, M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 544 b.